O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **23,0** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,2** mingtaga kamaygan yoki **5,0** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,6** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning yanvar-iyunida **2,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **0,8** % ga ko‘paygan.

## 2020-2024-yillar 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda




**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2024-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

| 2023-y. | | 2024-y. |
|---|---|---|
| 24 240 | Andijon viloyati | 23 026 |
| 6 528 | Andijon sh. | 6 216 |
| 2 108 | Asaka | 2 035 |
| 1 925 | Andijon | 1 933 |
| 1 677 | Shahrixon | 1 508 |
| 1 367 | Baliqchi | 1 382 |
| 1 234 | Oltinko‘l | 1 209 |
| 1 198 | Izobskan | 1 119 |
| 1 227 | Marhamat | 1 053 |
| 1 028 | Jalaquduq | 1 030 |
| 1 143 | Qo‘rg‘ontepa | 1 106 |
| 1 238 | Xo‘jaobod | 990 |
| 1 085 | Paxtaobod | 926 |
| 711 | Bo‘ston | 796 |
| 723 | Buloqboshi | 685 |
| 583 | Ulug‘nor | 618 |
| 465 | Xonobod sh. | 420 |

2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **23 026** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 279** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Andijon shahrida **6 216** tani yoki jamiga nisbatan **27,0** % ni tashkil etdi.

## 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 12,9 |
| Bo‘ston | 13,9 |
| Ulug‘nor. | 23,3 |
| Xonobod sh. | 9,3 |
| Andijon. | 8,9 |
| Baliqchi | 9,2 |
| Oltinko‘l | 7,7 |
| Asaka | 7,5 |
| Marhamat | 8,6 |
| Jalaquduq | 9,2 |
| Xo‘jaobod | 12,6 |
| Qo‘rg‘ontepa | 8,8 |
| Shahrixon | 5,9 |
| Buloqboshi | 6,6 |
| Paxtaobod | 7,9 |
| Izboskan | 6,2 |

## Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-iyul holatiga, birlikda







2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,1** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan **0,7** birlikka ko‘paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Andijon shahrida **12,9** birlik, Bo‘ston tumanida **13,9** birlik, Ulug‘nor tumanida **23,3** birlik, Xonabod shahrida **9,1** birlik va Xo‘jaobod tumanida **12,6** birlikka yetdi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

**Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda**




Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Andijon shahrida **12,9** birlik, Bo‘ston tumanida **13,9** birlik, Ulug‘nor tumanida **23,3** birlik, Xonabod shahrida **9,3** birlik, Andijon tumanida **8,9** birlik, Baliqchi tumanida **9,2** birlik, Oltinko‘l tumanida **7,7** birlik, Asaka tumanida **7,5** birlik, Marhamat tumanida **8,6** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2024-yil 1-iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlarini ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| 2023-y. | | 2024-y. |
|---|---|---|
| 532 | Andijon sh | 453 |
| 240 | Andijon | 189 |
| 171 | Asaka | 147 |
| 134 | Shahrixon | 118 |
| 130 | o‘rg‘ontap | 185 |
| 132 | Oltinko‘l | 127 |
| 123 | Izboskan | 121 |
| 136 | Baliqchi | 163 |
| 136 | Marhamat | 108 |
| 109 | Xo‘jaobo | 112 |
| 70 | Buloqbosh | 107 |
| 93 | Bo‘ston | 125 |
| 69 | Ulug‘nor | 106 |
| 69 | Jalaquduq | 102 |
| 96 | Paxtaobo | 72 |
| 20 | onobod sh | 44 |

## 2024-yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Andijon shahri (**19,9** %), Andijon tumani (**8,3** %), Qo‘rg‘ontepa tumani (**8,1** %|), Baliqchi tumani (**7,2** %), Asaka tuman (**6,5** %), Oltinko‘l tumani (**5,6** %) hamda Bo‘ston tumani (**5,5** %) hissalariga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2023-2024-yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| Faoliyat turi | 2024-y. | 2023-y. |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 145 | 167 |
| Sanoat | 568 | 489 |
| Qurilish | 116 | 154 |
| Savdo | 894 | 953 |
| Tashish va saqlash | 70 | 109 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 159 | 93 |
| Axborot va aloqa | 66 | 60 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 69 | 66 |
| Boshqa xizmatlar | 192 | 169 |

2023-y. 2024-y.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda

| Shahar va tumanlar | 2024-y. | 2023-y. |
|---|---|---|
| Andijon shahri | 453 | 532 |
| Andijon tumani | 189 | 240 |
| Qo‘rg‘ontepa tumani | 185 | 130 |
| Baliqchi tumani | 163 | 136 |
| Asaka tumani | 147 | 171 |
| Oltinko‘l tumani | 127 | 132 |
| Bo‘ston tumani | 125 | 93 |

2023-y. 2024-y.

2024-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (**984** ta), sanoatda (**568** ta) hamda Boshqa xizmatlar sohasida (**192** ta) yangidan tashkil etilgan.

Viloyatimizning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (**453** ta), Andijon tumanida (**189** ta) hamda Qo‘rg‘ontepa tumanida (**185** ta) yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik**




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-iyuni davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik**




So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e’tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **7 446** ta kichik korxona va mikrofirma yangitdan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasida – **2 967** (yoki **40,0** %) ta, sanoat sohasida – **1 722** (yoki **23,1** %) ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **1 343** (yoki **18,0** %) ta, xizmat sohasida – **924** (yoki **12,4** %) ta va qurilish sohasida – **490** ( yoki **6,6** %) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

### Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da

| Ko‘rsatkich | 2024-y. | 2023-y. |
|---|---|---|
| Sanoat | 24,3 | 23,3 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 98,0 | 98,1 |
| Investitsiya | 65,4 | 74,7 |
| Qurilish | 95,1 | 98,1 |
| Chakana savdo | 91,8 | 92,9 |
| Xizmatlar | 65,1 | 65,5 |
| Yuk tashish | 96,0 | 95,4 |
| Yuk aylanmasi | 77,0 | 82,4 |
| Yo‘lovchi tashish | 97,1 | 98,6 |
| Yo‘lovchi aylanmasi | 94,9 | 92,4 |
| Eksport | 40,8 | 32,3 |
| Import | 18,1 | 14,0 |

2023-y. 2024-y.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da

2024-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,0** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **1** % ga kamaygan.




## 2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligi **98,0** % ni, yo‘lovchi tashish **97,1** % ni, yuk tashish **96,0** % ni, qurilish **95,1** % ni, yo‘lovchi aylanmasi **94,9** % ni, yuk aylanmasida **77,0** % ni tashkil etdi.

## Tarmoqlarning YAHMdagi ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati

*Hajmi, mlrd. so‘mda*




*Ulushi, % da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomoinidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m**




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 971,8** mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (**1 495,2** mlrd. so‘m), Baliqchi (**1 092,9** mlrd. so‘m), Xo‘jaobod (**862,8** mlrd. so‘m), Shahrixon (**803,3** mlrd. so‘m), Andijon (**697,4** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Bo‘ston tumanida (**189,3** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m**

*2024-yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi* ***24,3*** *% ni tashkil etdi.*




**2024-yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Izboskan (**98,9** %), Ulug‘nor (**90,2** %), Jalalquduq (**89,7** %), Andijon (**87,5** %), Shahrixon (**86,1** %), Baliqchi (**82,2** %), Xo‘jaobod (**68,9** %), Buloqboshi (**66,6** %), Bo‘ston (**62,7%**) hamda Marxamat (**54,4** %) tumanlari tashkil etdi.

## 2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi




## 2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 542,6** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **95,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **100,8** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (**1 484,4** mlrd. so'm), Shahrixon (**278,9** mlrd. so'm), Andijon (**239,0** mlrd. so'm), Oltinko'l (**177,7** mlrd. so'm), Izboskan (**168,9** mlrd. so'm), Bo'ston (**158,6** mlrd. so'm) hamda Asaka (**151,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda**




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 542,6** mlrd. so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **68,9 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **186,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Buloqboshi tumani (**1 478,6** mlrd. so‘m), Shahrixon tuman (**383,5** mlrd. so‘m), Andijon tuman (**366,3** mlrd. so‘m), Andijon shaxar (**232,8** mlrd. so‘m), Paxtaobod tuman (**219,0** mlrd. so‘m), Asaka tuman (**185,5** mlrd. so‘m), Baliqchi tuman (**175,9** mlrd.so‘m) hamda Jalolquduq tumanida (**166,3** mlrd.so‘m) qayd etildi.

**2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi**




**2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **16 878,5** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,0,** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **102,9** % ni tashkil qildi.

**2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda**




**2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Asaka (**1 772,0** mlrd. so‘m), Jalalquduq (**1 658,9** mlrd. so‘m), Shahrixon (**1 432,2** mlrd. so‘m), Qo‘rg‘ontepa (**1 350,6** mlrd. so‘m), Baliqchi (**1 266,6** mlrd. so‘m) hamda Paxtaobod (**1 265,8** mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

### 2019-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 658,4** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,0 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **110,4** % ni tashkil qildi.

### 2024-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (**2 613,8** mlrd. so‘m), Shahrixon (**1 039,5** mlrd. so‘m), Asaka (**899,2** mlrd. so‘m), Baliqchi (**873,6** mlrd. so‘m), Andijon (**829,2** mlrd. so‘m), Oltinko‘l (**663,4** mlrd. so‘m) va Xo‘jaobod (**579,5** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

### 2019 va 2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




**2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda**




2024-yil yanvar-iyunida oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 764,4** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,1 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **113,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Andijon shahri (**2 835,3**mlrd. so‘m), Andijon (**482,5** mlrd. so‘m), Asaka (**477,4** mlrd. so‘m), Baliqchi (**460,0** mlrd. so‘m), Shahrixon (**403,3** mlrd. so‘m), Marxamat (**376,5** mlrd. so‘m) va Jalalquduq (**376,1** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari**
**(yanvar-iyun oylarida)**

| | | |
|---|---|---|
| 3 549,9 | Savdo xizmatlari | 31,4 |
| 2 565,7 | Moliyaviy xizmatlari | 22,7 |
| 2 247,6 | Transport xizmatlar | 19,9 |
| 611,1 | Shaxsiy xizmatlar | 5,4 |
| 603,9 | Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 5,3 |
| 590,3 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 5,2 |
| 392,5 | Boshqa xizmatlar | 3,2 |
| 286,1 | Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 2,5 |
| 278,2 | Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari | 2,5 |
| 238,6 | Ta’lim Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar xizmatlar | 2,1 |
| 236,0 | Ijara prokat xizmatlari | 2,1 |
| 212,1 | Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 1,9 |
| 107,3 | Me’morchilik muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 0,9 |

*Hajmi, mlrd. so‘mda* *Ulushi, foizda*

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **31,4** % (**3 549,9**mlrd. so‘m), Moliyaviy xizmatlarida – **22,7** % (**2 565,7** mlrd. so‘m), transport xizmatlarda – **19,9** % (**2 478,6** mlrd. so‘m) hamda Shaxsiy xizmatlar ko‘rsatishda **5,4** % (**611,1** mlrd. so‘m)ni tashkil etdi.

Me’morchilik muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida **0,9** % (**107,3** mlrd. so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, *mln. AQSh doll.*




Ulushi, *% da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, *mln. AQSh doll.*




Ulushi, *% da*



**2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **209,9** mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **40,8** % ini tashkil etdi.

**2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**




2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Izboskan tumanida – **96,2** %, Buloqboshi tumanida – **94,0** %, Jalalquduq tumanida – **93,4** %, Andijon tumanida – **91,0** %, Ulug‘nor tumanida – **84,9** %, Paxtaobod tumanida – **82,7** %, Qo‘rg‘ontepa tumanida – **81,2** % va Marhamat tumanida – **67,7** % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Asaka tumaida – **4,6** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **282,4** mln. AQSh dollarini yoki jami importning **18,1** % ini tashkil etdi.

**2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Jalquduq tumanida – **100,0** %, Izboskan tumanida– **100,0** %, Bo‘ston tumanida – **100,0** %, Shahrixon tumanida – **99,9** %, Paxtaobod tumanida – **99,0** %, Qo‘rg‘ontepa tumanida – **98,5** %, hamda Ulug‘nor tumanida **92,8** % ni tashkil etdi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




2024-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,0** % ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati **103,1** % ni tashkil qildi.




2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **77,0** % ni tashkil etgan bo‘lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati **104,2** % ni tashkil qildi.




2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,1** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati **102,2** % ni tashkil qildi.




2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,9** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati **104,7** % ni tashkil qildi.

## 2024-yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024-yil **II chorak** yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **1006** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **268** (**26,6** %)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **672** (**66,8** %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **66** (**6,7** %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **39,0** % (**393** ta), xizmatlar sohasida – **27,3** % (**274** ta), sanoatda – **20,4** % (**205** ta), qurilishda – **9,4** % (**94** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **4,0** % (**40**ta)ni tashkil etdi.

## 2024-yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



### 2024-yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

| Respondentlar soni | | Ulushi, foizda |
|---|---|---|
| 329 | Andijon sh. | 31,7 |
| 81 | Andijon | 7,8 |
| 80 | Asaka | 7,7 |
| 52 | Baliqchi | 5,0 |
| 38 | Bo‘ston | 3,7 |
| 29 | Buloqboshi | 2,8 |
| 49 | Izboskan | 4,7 |
| 37 | Jalaquduq | 3,6 |
| 48 | Marhamat | 4,6 |
| 70 | Oltiko‘l | 6,7 |
| 40 | Paxtaobod | 3,8 |
| 32 | Qo‘g‘ontepa | 3,1 |
| 36 | Ulug‘nor | 3,5 |
| 40 | Xo‘jaobod | 3,8 |
| 19 | Xonobod sh. | 1,8 |
| 59 | Shahrixon | 5,7 |

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (**329** ta), Andijon (**81** ta), Oltinko‘l (**70** ta), Asaka (**80** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning II choragida **563** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning II choragiga kelib esa **289** taga yetgan yoki 2019-yilning II choragiga nisbatan **274** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **253** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning yanvar-iyunida **695** ta yoki **442** taga ko‘paygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **28** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib **66** tani tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan **38** taga ko‘paygan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning **II** choragida **497** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning **II** choragiga kelib esa **316** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **181** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning **II** choragida **324** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning II choragida **578** ta yoki **254** taga ko‘paygan..

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019-yilning **II** choragida **20** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **73** tani tashkil etib, **53** taga ko‘paygan..

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning **II** choragida **32,4** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **36,6** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **0,2** % ga ortgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **57,3** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning **II** choragida **55,4** % yoki **1,9** % ga kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **6,3** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, bu ko‘rsatkich **8,0** % ga yetgan yoki **1,7** % ga ortgan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning II choragida **37,7** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **34,1** % ga yetgan yoki 2019-yilning **II** choragiga nisatan **3,6 %** ga ortgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilning II choragida **56,6** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning yanvar-iyunida **60,4** % yoki **3,8** % ga ortgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilning II choragida **5,7** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **5,5** % yoki **0,2** % ga kamaygan.

**2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning II choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda – **45,3** % ni, Xizmatda – **26,6** % ni, Sanoatda– **19,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi Savdo sohasida – **40,6** % ni, Xizmatda – **26,1** % ni, Sanoatda – **22,6** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi Savdoda – **45,5** % ni, Sanoatda – **25,0** % ni, Xizmatda – **20,5** % ni tashkil etdi.

**2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




2024-yilning **II** choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin **3** oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdo – **44,1** % ni, xizmatlar sohasida – **26,7** % ni. va sanoatda – **18,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin **3** oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi Savdoda – **40,9** % ni, Xizmatda – **24,6** % ni, sanoatda – **24,2** % ni tashkil etdi.

Yaqin **3** oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi Savdoda – **35,3** % ni, Sanoatda – **23,5** % Xizmatda – **23,4** % ni tashkil etdi.

## 2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 30,9 | 59,7 | 9,4 |
| Band bo'lganlar soni | 17,9 | 75,3 | 6,8 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 31,0 | 60,6 | 8,4 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 26,0 | 66,2 | 7,8 |
| Raqobat muhiti | 34,5 | 60,1 | 5,5 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 37,2 | 59,0 | 3,8 |
| Band bo'lganlar soni | 23,7 | 72,9 | 3,4 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 31,0 | 65,1 | 3,9 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari | 27,6 | 68,4 | 4,0 |
| Raqobat muhiti | 35,4 | 61,4 | 3,1 |

** Faqat raqobat muhitiga tegishli*

**2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**




**2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**




** Faqat raqobat muhitiga tegishli*